**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**G‘ANIYEVA LOBAR SA’DULLA QIZI**

# O‘ZBEK TILI DAVLAT BOSHQARUVI TERMINLARI

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK: 811.512.133’373.46:342.5**

# Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi

# Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

# Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

**G‘aniyeva Lobar Sa’dulla qizi**
O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlari ..... 3

**Ganiyeva Lobar Sadulla kizi**
Terms of public administration in Uzbek language ..... 25

**Ганиева Лобар Саъдулла кизи**
Термины государственного управления в узбекском языке..... 47

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
List of published works
Список опубликованных работ ..... 52

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**G‘ANIYEVA LOBAR SA’DULLA QIZI**

# O‘ZBEK TILI DAVLAT BOSHQARUVI TERMINLARI

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation was registered with the Higher Atetestation Commission under the Minstry and of Higher Education, Science of Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.4.PhD/Fil2818.**

The doctoral thesis was carried out at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Dissertation abstract is placed on the web site of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and educational informational portal of "Ziyonet" (www.ziyonet.uz ) in three languages (Uzbek, English and Russian (resume).

| | |
|---|---|
| **Scientific advisor:** | **Abdushukurov Bakhtiyor Buronovich**<br>Doctor of Philological sciences, Professor |
| **Official opponents:** | **Sobirov Abdulhay Shukurovich**<br>Doctor of Philological Sciences, Professor |
| | **Mamatov Abdugafur Eshonkulovich**<br>Doctor of Philological Sciences, Professor |
| **Leading organization:** | **Tashkent State Pedagogical University named after Nizami** |

The defence of the dissertation will be held on the 22th of May 2025 at $14^{00}$ hours at a meeting of the Scientific Council under the number DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Khos Hojib Street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@tsuull.uz.

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registered under the number 345). (Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Khos Hojib Street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@tsuull.uz.

Abstract of the dissertation is distributed on "30" CHA'LIM 2025.

(Protocol at the register No. 1 dated "30" 2025)

**H.A.Dadaboyev**
Chairman of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Science, Professor

**K.U.Pardayev**
Scientific Secretay of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Science, professor

**S.Ashirboyev**
Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

Сканировано с CamScanner

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2818 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti vebsahifasi (www.tsuull.uz) hamda “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Abdushukurov Baxtiyor Bo‘ronovich**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Sobirov Abdulhay Shukurovich**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| | **Mamatov Abdug‘afur Eshonqulovich**<br>filologiya fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22-may soat $14^{00}$ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil:100100, Toshkent shahri, Yusuf Xos Hojib, 103-uy, Tel.: (0371) 281-45-11; faks: (0371) 281-45-11; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (345 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “30” 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil “30” 04 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi)

**H.A.Dadaboyev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

**Q.U.Pardayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., professor

**S.Ashirboyev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

Сканировано с CamScanner

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo tilshunosligida XX asrning o‘rtalaridan boshlab tadqiqot obyekti bo‘lgan terminosistemalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Ma’lum sohalarga doir leksik birliklar inson lisoniy zahirasining katta qismini tashkil qiladi. Terminologik lisoniy zahira vaqt o‘tgani sari boyib boradi, ifodalagan tushunchalari o‘zgarishlarga uchraydi hamda eskilari o‘z o‘rnini yangilariga bo‘shatib beradi. Bu jarayon tilning terminologik sathida uzluksiz tadqiqotlar olib borilishini talab etadi. Til zahirasida terminlar miqdorining oshishi, shuningdek, terminologik tizimlarning rivojlanishi adabiy til taraqqiy etishining muhim belgisi bo‘lganligi uchun ham davlat boshqaruvi terminlarining shakllanish manbalari, leksik-semantik xususiyatlari, genealogiyasini o‘rganish, paradigmatik munosabatlarini aniqlash muhim sanaladi.

Jahon tilshunosligida terminga qo‘yiladigan talablar, uning xususiyatlari, tushuncha ifodalash jihatlari, terminologik birliklarda leksik-semantik munosabatning mavjudligi, ularni moddiylashtiruvchi til birliklari ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan bo‘lishiga qaramasdan yangi sohalar (diplomatiya, bank-moliya, turizm, ish yuritish terminologiyasi, davlat boshqaruvi) zaminida yangi tushunchalarni ifodalovchi terminlarning qo‘llanilishi ularning o‘rganilishini talab qilmoqda. Shu jihatdan davlat boshqaruviga oid terminlarni tartibga solish, leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash, genealogik tarkibini o‘rganish ham ijtimoiy-siyosiy, ham lingvistik jihatdan dolzarblik kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida so‘ngi paytlarda terminlarning to‘g‘ri qo‘llanilishiga erishish, leksik birliklarni terminologik birliklarga aylantirish va terminlashtirishda birinchi o‘rinda ichki imkoniyatlarga tayanish asoslarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, terminologiya talqini borasidagi qarashlarni umumlashtirish, tizimga solish hamda mutaxassislar e’tiboriga havola etish borasida amalga oshirilgan izlanishlar katta ilmiy-nazariy ahamiyatga molik. Shu nuqtayi nazardan, jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishda bo‘lgan bir vaqtda davlat boshqaruvi terminlarini tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyoj katta. Zotan, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonda: “...mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq hamda to‘g‘ri foydalanishga erishish”[1] eng asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu ma’noda, o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarini tadqiq qilish dolzarb ilmiy muammolardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-49-97-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini

[1]Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // http//uza.uz/oz/documents/uzbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019.

yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-son “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi va uning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida bugungi kunga qadar terminlar lingvistik jihatdan uzluksiz tadqiq etilmoqda. Jumladan, G.Vinokur, A.Reformatskiy, D.Lotte, V.Danilenko kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida terminologiyaning nazariy jihatlari, terminlar sistemasini tartibga solish, terminning belgilari, termin va terminologiyaning amaliy ahamiyati ochiqlangan bo‘lsa[2], A.Superanskaya, N.Podolskaya, N.Vasilyeva esa termin tilning o‘ziga xos elementi ekanligini ilmiy asoslab bergan[3]. Y.Belchikov, I.Protchenko, A.Buryachok, P.Milshin, N.Leyberova, I.Tkacheva kabi tilshunos olimlar semantik-mavzuiy jihatdan ijtimoiy-siyosiy qatlamga doir so‘zlarni nominativlik asosida o‘rganishgan[4]. Shuningdek, Nguen Txi Txu Van, M.Kulchiyeva, S.Efendiyeva, Alkudah Amjad Qosim Muhammad, Е.Белоус, T.Artyunova kabi tilshunoslar terminologiyaga doir tadqiqot ishlari olib borishgan[5]. Turkiy tillarga oid ishlar

[2]Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т. 5. Сборник статей по языковедению. – М., 1939; Реформатский А.А. Что такой термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М., 1961; Лотте Д.С. Как работать над терминологией. Основы и методы. – М., 1968; Shu muallif: Вопросы саимствованиы и упорядочения иноязычных терминов и терминоелеминтов. – М.: Наука, 1982; Данилинко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977.

[3]Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 2012.

[4]Бельчиков Ю.А. Общественно-политическая лексика В.Г.Белинского. – М., 1962; Мильшин П.К. Обогашение общесвенно-политической лексики русского литературного языка в советскую эпоху. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ростов н/Д., 1964; Бурячок А.А. Формирование общего фонда социально-политической лексики восточнославянских языков. Автореф. дисс. … д-ра филол. наук. – Киев, 1984; Лейберова Н.М. Терминология государственного устройсва в современном русском языке. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Лелинград, 1984; Ткачева И.О. Политическая лексика в современном русском языке: семантические асобинности и проблемы лексикографического представления. Дисс. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008.

[5] Нгуен Тхи Тху Ван. Терминология государственного управления в современном русском языке. Дисс. … канд. филол. наук. – М., 2001; Кульчиева М.Б. Вклад русского языка в становление и развитие общественно-политической терминологии осетинского. Дисс. … канд. филол. наук. – Владикавказ, 2005; Эфендиева С.С. Развитие Общественно-политической терминологии лезгинского языка. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Махачкала, 2006; Алькудах Амджад Касим Мухаммад. Терминология международного туризма в современном русском языки. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Воронеж, 2019; Белоус Е.С. Терминология управления документацией: семантика, структура, функционирование. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Волгород: ВолгГТУ, 2021.

sifatida M.Xarlanova, A.Isabekova, R.Barlibayevning dissertatsiyalari alohida ahamiyatga ega[6].

O‘zbek tilshunosligida terminologik leksika tadqiqida S.Akobirov, A.Hojiyev, O.Usmonov, R.Doniyorov S.Usmonov, H.Dadaboyev, N.Usmonov, H.Yodgorov, A.Sobirov, G.G‘ulomova, I.Yuldashev, Z.Isaqova, G‘.Ismailov, A.To‘raxojayeva, A.Madvaliyev, S.Mustafayeva, D.Kadirbekova, D.Saidqodirova, R.Sharopova, B.Mirsanov, Y.Shirinova, S.Mavlyanov, E.Sabirova kabi tilshunoslarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi[7].

Amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tilidagi davlat boshqaruvi terminlari alohida tadqiqot ishi sifatida tadqiq etilmagan. Mazkur dissertatsiya mavzusi esa o‘zbek terminologiyasida ilk bor o‘rganilmoqda.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tilning ijtimoiy, tarixiy va zamonaviy taraqqiyoti” yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarini semantik va genealogik jihatdan tahlil qilish orqali uning o‘zbek adabiy tili rivojida tutgan o‘rnini ochib berishdan iborat**.**

---

[6]Харланова М.С. Развитие общественно-политической терминологии туркменского языка в современный период. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1965; Исабекова А.Б. Общественно-политическая терминология в киргизском литературном языке и вопросы ее упорядоточения. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1971; Барлибаев Р. Қазіргі қазақ тіліндеги қогамдық саяси лексика. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Алматы: Мектеп, 1978.

[7]Акобиров С.Ф. Тил ва терминология. – Т., 1968; shu muallif. Терминология ишининг мазмуни ва вазифалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Т., 1964. – № 3. – Б. 31-38; Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Ўқитувчи, 1968; Усмонов О., Дониёров Р. Русча интернационал сўзлар изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон, 1972; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Т.: Фан, 1977; Дадабаев Х.А. Общесвенно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV в.в. – Т.: Ёзувчи, 1991; shu muallif: O‘zbek terminologiyasi. – T.: Nodirabegim, 2020; Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 1994; Ёдгоров Ҳ.Э. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1996; Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. Ахборот. 11-12-чиқарув. – Т.: Фан, 1996; Собиров А.Ш. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Т.: Маънавият, 2004; Ғуломова Г.Ё. Ўзбек тили юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2005; Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилик терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2005; Исақова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2010; Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2011; Тўрахожаева А. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2012; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017; Мустафаева С.Т. Хитой тилшунослик терминологияси. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Т., 2017; Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникатсия технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2017; Саидкодирова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2018; Шаропова Р.Ж. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Қарши, 2019; Мирсанов Б.М. Ўзбек тили терминологиясида иккламчи номлашлар ва уларнинг мотивлашуви. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Самарқанд, 2019; Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молоия терминологияси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2020; Mavlyanov S.J. O‘zbek tili diplomatik terminlari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – T., 2022; Сабирова Э.Ш. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” да ҳуқуқий терминларнинг берилиши. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2022.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminologiyasining nazariy asoslarini o‘rganish, shakllanish manbalarini tadqiq etish natijasida o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining o‘zbek adabiy tilidagi o‘rni va ahamiyatini belgilash;

o‘zbek tili davlat bosharuvi terminlarini mavzuiy guruhlarga ajratish asosida leksik-semantik jihatdan sohaga doir terminologik birliklarni tizimlashtirish;

davlat boshqaruviga doir terminologik birliklarni genealogik jihatdan o‘rganish natijasida bugungi davr uchun xarakterli bo‘lgan terminlarni aniqlash hamda o‘z va o‘zlashma qatlamga doir terminlarning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash, o‘zlashmalarning o‘zlashish usullariga oydinlik kiritish orqali davlat boshqaruvi terminologiyasining boyish manbasini ko‘rsatish;

davlat boshqaruvi terminlarining paradigmatik munosabatlarini yoritish yordamida ularning mazmun-mohiyati, til va tafakkur munosabatidagi o‘rnini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug‘ati”, “Davlat boshqaruviga oid terminlarning izohli lug‘ati” hamda sohaga doir qonun hujjatlari, lex.uz va gov.uz saytlaridagi davlat boshqaruvi terminlari tanlab olindi.

**Tadqiqotning predmetini** o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminologiyasining nazariy asoslari, shakllanish manbalari, leksik-semantik mavzuiy guruhlari, genealogiyasi va paradigmatik munosabatlarini sinxron aspektda tadqiq etish tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, komponent va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

davlat bosharuvi terminologiyasini o‘rganishning nazariy asoslari keltirilishi natijasida o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni va ahamiyati dalillangan, til tizimida alohida sohaga doir terminologik birliklar ekanligi isbotlangan;

o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlari mazmuniy aloqasiga ko‘ra mavzuiy guruhlarining aniqlanishi natijasida sohaga oid terminlar qamrovi belgilangan va tizimlashtirilgan, shuningdek, guruhlarga mansub terminlarning semantik jihatdan mutanosibligi misollar asosida dalillangan;

o‘zbek tili davlat bosharuvi terminlarining genealogiyasi o‘z va o‘zlashgan qatlamlar bo‘yicha tahlili yordamida o‘zbek tili rivojida qo‘shimchalar vositasida so‘z yasash hamda sintaktik usul katta o‘rin tutgani, o‘zlashmalardan yangi terminlar yasashda turkiy affikslarning ishtiroki muhimligi asoslangan;

o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlari o‘rtasidagi paradigmatik munosabatlar (sinonimiya, giper-giponimiya, antonimiya, partonimiya) yoritilgan, misollar asosida ushbu hodisalarning o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminologiyasida amal qilishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

davlat boshqaruvi terminologiyasini o‘rganishning nazariy asoslarini tadqiq etish shu sohada keyingi olib borilishi kerak bo‘lgan tadqiqotlarning amaliy ahamiyatini va ilmiy asosini ko‘rsatib bergan;

davlat boshqaruvi terminlarining shakllanish manbalarini o‘rganish natijasida olingan xulosalar terminlarning ma’no taraqqiyotini ochib berish, til tarixi bilan aloqador lisoniy hodisalarni sharhlash, adabiy tilning shakllanish va rivojlanish bosqichlariga xos xususiyatlarni aniqlashga imkon berishi ilmiy-nazariy jihatdan dalillangan;

davlat boshqaruviga mansub terminlar, o‘z navbatida, xalqimizning shu davrdagi hayoti, turmush tarzi, madaniyati, urf-odati, an’analari, jamiyat va siyosat o‘rtasidagi mutanosiblik asosida shakllangani bois tuzilgan mavzuiy guruhlar davlat boshqaruvi terminlarining ma’noviy chegarasini aniqlashga xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqot natijalari istiqbolda leksikologiya, terminologiya, hozirgi o‘zbek adabiy tili, terminologiyadagi leksik-semantik jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganish, darslik va o‘quv qo‘llanmalari, terminologiyaga doir izohli lug‘atlar yaratish uchun manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi isbotlangan;

davlat boshqaruvi terminlarining genealogik tahlil etilishi, paradigmatik munosabatlarning o‘rganilishi, jumladan, XXI asr uchun xarakterli bo‘lgan terminologik masalalarining yoritilishi filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislari uchun zarur material vazifasini o‘tashi ko‘rsatib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishining obyekti aniq belgilangani, tadqiqot olib borishda asosli manbalarga tayanilgani, muammoning aniq qo‘yilgani, tadqiqot ishining zarurati rasmiy manbalar asosida tasdiqlangani, keltirilgan tahlillarning ilmiyligi va nazariy manbalar bilan asoslangani, o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlari tadqiqi bo‘yicha xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sifatida aytishimiz mumkinki, bugungi kunda olib borilayotgan davlat siyosati, davlat boshqaruvining takomillashuvi sohada yangi terminlarning qo‘llanilishiga zamin yaratmoqda. Bu terminlarning ifoda semalarini o‘rganish, o‘zbek tili terminologik sistemasining qamrovini belgilash uchun o‘zbek tili leksikasi, jumladan, terminologik sathda yangi tadqiqotlar olib borilishiga keng yo‘l ochilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotning materiallari va xulosalaridan oliy o‘quv yurtlaridagi “Terminologiya”, “Korpus lingvistikasi”, “Umumiy tilshunoslik”, “Leksikografiya” kabi o‘qitiladigan mutaxassisilik fanlaridan ma’ruzalar tayyorlashda hamda davlat boshqaruvi sohasi mutaxassislari uchun maxsus kurslar yaratishda, shuningdek, “O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining tezaurus lug‘ati”, “O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining cho‘ntak lug‘ati”, “O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining o‘quv lug‘ati (maktab ta’limi, OTM)” kabilarni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi**. O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlari tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

davlat boshqaruvi terminlarining shakllanishida O‘rxun-Enasoy obidalari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari, shuningdek, “Temur tuzuklari”, Alisher Navoiyning asarlari, Ogahiyning “Riyoz-ud davla” asari kabi manbalarning o‘rni asoslanganligi va ularga doir turkiy terminlarning izohlanishi, davlat boshqaruvi terminlarining taraqqiyoti va takomilida ekstralingvistik omilning ta’siri muhim ekanligi hamda genealogik tahlil natijalariga doir xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarga mo‘ljallangan AM-FZ-201908172-raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 02-dekabrdagi 04/1-3480-sonli ma’lumotnomasi). Natijada turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratishga oid materiallar ko‘lami kengaygan, lingvodidaktik manbalardagi davlat boshqaruvi terminlarining mazmuni va mohiyatining aniqlanishiga erishilgan;

terminlar so‘z yasovchi qoliplar negizida yasalishining isbotlangani, faol yasovchi qo‘shimchalarning aniqlangani, terminlarning grammatik strukturasi ko‘rsatilganligi, birikmali terminlarning keng ko‘lamdaligi va ularda aniqlovchi komponentning ahamiyati, terminlarda sinonimlar tahlili bilan bog‘liq natijalari hamda ishlab chiqilgan tavsiyalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan ИЛ-402104209 “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex. Goole translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – O‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 02-dekabrdagi 04/1-3479-sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratishda til birliklarini leksik-semantik, grammatik hamda genealogik tomondan o‘rganish uchun ilmiy-nazariy manba hisoblangan;

o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni va ahamiyati dalillangani, til tizimida alohida sohaga doir terminologik birliklar ekanligining isbotlangani hamda o‘zbek tili davlat bosharuvi terminlarining genealogiyasi o‘z va o‘zlashgan qatlamlar bo‘yicha tahlili yordamida o‘zbek tili rivojida qo‘shimchalar vositasida so‘z yasash hamda sintaktik usul katta o‘rin tutgani, o‘zlashmalardan yangi terminlar yasashda turkiy affikslarning ishtiroki muhimligi asoslanganligiga oid tahlillar hamda xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarda bajarilgan ИЛ-402104209 “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex. Goole translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – O‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 02-dekabrdagi 04/1-3479-sonli ma’lumotnomasi). Natijada axborot-qidiruv tizimlari uchun avtomatik ishlov berish vositasini yaratishda lingvistik ta’minot uchun tayanch tadqiqot ishi sifatida xizmat qilgan;

davlat boshqaruvi terminlarining leksik-semantik xususiyatlari, yasalish usullari va paradigmatik munosabatlarining tahlili natijalaridan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida 2021-2023-

yillarda amalga oshirilgan 01/04. “Yangi avlod o‘quv lug‘atlari va ularning mobil ilovalarini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (2025-yil 06-fevraldagi 407/05-2-sonli ma’lumotnomasi). Natijada lug‘atlarni tuzish va mobil ilovalarning lingvistik ta’minotini yaratishda, sinonimlar va morfemalar jadvalini shakllantirishda amaliy hamda ilmiy-nazariy tadqiqot vazifasini bajargan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, jumladan, xorijiy jurnallarda 1 ta, respublika jurnallarida 4 ta maqola e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Davlat boshqaruvi terminologiyasining nazariy asoslari”** ga bag‘ishlanadi. Bobning 1.1. paragrafi *“Tilshunoslikda davlat boshqaruvi terminologiyasining tadqiq etilishi”* deb nomlanib, tilshunoslikda davlat boshqaruvi terminologiyasining tadqiq etilishiga doir tadqiqotlar xususida mulohaza yuritiladi.

Terminologiya masalalariga oydinlik kiritish, termin tushunchasi, termin tanlash mezonlari, sohalarga oid terminlarni tadqiq etish dolzarb bo‘lib, taraqqiyotning jadallashuvi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning takomillashuvi terminologiyaga doir masalalarning ko‘lamini kengaytiradi. Rus tilshunosligida sohaviy terminologiya bo‘yisha qilingan ishlar davriylik jihatidan tahlil qilinganda, aynan, ijtimoiy-siyosiy leksikaga doir keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilganligi ta’kidlangan[8].

Nguen Txi Txu Van rus tilidagi davlat boshqaruvi terminlarini tadqiq etishda termin tushunchasi uning xususiyatlari, tadqiqotning nazariy muammolari, rus tilida davlat boshqaruvi terminologiyasini shakllantirishdagi faol jarayonlarga alohida to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, davlat boshqaruvi terminlarining struktur va leksik-semantik tahlillarini hamda tematik tasnifini amalga oshirgan[9].

M.Kulchiyeva esa, rus tili ta’sirida shakllangan eroniy tillar guruhiga mansub osetin tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi tadqiqida osetin va rus tili

[8] Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – С. 279 – 280.

[9] Нгуен Тхи Тху Ван. Терминология государственного управления в современном русском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001. – С. 213.

lingvomadaniy munosabatlarining o‘rganilish tarixi, siyosiy terminologiyaning tarkibiy qismi bo‘lgan davlat boshqaruviga oid terminlarning genetik tasnifi va ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning shakllanish bosqichlarini tadqiq qilgan[10].

O‘zbek tilshunosligida A.Hojiyev termin va terminologiya masalalariga alohida e’tibor qaratib, har bir til, uning lug‘at tarkibi ichki va tashqi imkoniyatlar asosida rivojlanishini ta’kidlaydi, termin qaysi tildan olinganidan qat’i nazar shu tilga singib ketgan so‘zlar uning o‘z mulki, boyligi hisoblanishiga ilmiy asoslar keltiradi[11].

XX asrning oxirgi choragiga kelib sohaviy terminologiyaga doir ilmiy tadqiqotlarning ko‘lami ancha kengaydi. Jumladan, H.Dadaboyev XI-XIV asr yozma manbalaridagi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy terminologiyasi tadqiqi terminlardagi fonetik hamda semantik o‘zgarishlar, ularning ifodalaydigan ma’nolari, genetik tavsifi, leksik-semantik munosabatlari (omonim, sinonim hamda antonimlik) xususida tahlil va xulosalar berganligi bilan qimmatlidir[12].

Shuningdek, davlat boshqaruvi terminlarining shakllanish tarixi, genealogik mohiyatini ochib berish hamda terminlarning sinxron va diaxron holatini qiyoslashda A.O‘razboyev, Z.Isaqova va B.Abdushukurovning tadqiqot ishlari amaliy ahamiyatga ega[13].

A.To‘raxojayeva mustaqillik davridagi ijtimoiy-siyosiy leksikaning taraqqiyotiga ahamiyat qaratib, 2-bobni to‘laligicha davlat boshqaruvi mikromaydonining leksik-semantik xususiyatlariga bag‘ishlagan[14].

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan R.Sharopova, N.Sadinova, Y.Shirinova, S.Mavlyanov kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida sohalar terminologiyasining lingvistik masalalari va ularning yechimi xususida asosli xulosalar mavjud[15].

Demak, o‘rganilgan barcha tadqiqot ishlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, terminologiyaga doir tadqiqot ishi olib borishda terminlarning shakllanish manbalari, mavzuiy guruhlari, genealogiyasi va leksik-semantik munosabatlarini tadqiq hamda tahlil etish ilmiy va amaliy jihatdan samarali natijaga olib keladi.

Ta’kidlash lozimki, davlat boshqaruvi tilshunoslik, pedagogika, yuridik, diplomatiya, ish yuritish terminologiyasidan qamrovi va bir qancha sohalarga doir terminlarni o‘zida tutashtirganligi bilan farq qiladi. Chunki davlat boshqaruvi

---

[10] Кульчиева М.Б. Вклад русского языка в становление и развитие общественно-политической терминологии осетинского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Владикавказ, 2005. – С. 7.

[11]Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Т.: Фан, 1996. – Б. 13.

[12]Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1991. – С. 21 – 49.

[13]Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг “Риёз уд-давла ” асарида ижтимоий-сиёсий лексика. Филол фан. номз. ... дисс. – Т., 2009. – Б. 51-55; Исақова З.М. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2010. – Б. 22 – 55; Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузий” лексикаси. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2017; Shu muallif: Туркий манбалар лексикаси. – Т.: Bookmany print, 2022. – Б. 46 – 67.

[14]Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёий лексикасининг тараққиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2012. – Б. 139.

[15] Шаропова Р.Ж. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Қарши, 2019. – Б. 129 – 131; Садинова Н.У. Ўзбек тили иш юритиш терминологияси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2020. – Б. 139 – 142; Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2020. – Б. 133 – 136; Mavlyanov S.J. O‘zbek tili diplomatik terminlari. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – T., 2022. – B. 46 – 67.

jamiyat hayotini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, huquqiy jihatdan tartibga solib turish jarayonini anglatadi. Ya'ni davlat boshqaruvi terminolgiyasi tadqiqida boshqaruv fani terminlari emas, aksincha, davlat boshqaruvining tashkil etilishi, tartibi, olib borilishi, faoliyatiga doir birliklar qamrab olinadi.

Bobning 1.2. paragrafi *"Davlat boshqaruvi terminlarining shakllanish manbalari"* deb nomlanib, unda davlat boshqaruvi terminlari shakllanishining tarixiy va mustaqillik davriga oid manbalari o'rganilgan.

Davlat boshqaruvi terminlarining shakllanish manbalarini tadqiq etish mazkur terminlarning yuzaga kelishi va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash imkonini beradi. "O'zbek terminologik leksikasining shaklanish manbasi ma'lum va mashhur qadimgi turkiy til (VII-X), eski turkiy til (XI-XIV) va eski o'zbek adabiy tili obidalariga borib taqaladi"[16]. Xususan, O'rxun-Enasoy obidalari, Abu Nasr Forobiyning davlat boshqaruviga oid asarlari, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asari, shuningdek, "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning tarixiy asarlari, Ogahiyning "Riyoz-ud davla" asari davlat boshqaruvi terminlari tavsiflangan muhim yodgorliklar sanaladi.

Ko'k turk bitiktoshlarining til uslubi o'ziga xos bo'lib, ularda davlatchilikka doir terminlar, maxsus atamalar mavjudligi olimlar tomonidan izohlangan. "Jumladan, *büjürük* "mahkama xizmatchisi", *il* "davlat", *illig* "davlatli", *tämğäçi* "muhrdor" *törü* "qonun", *şäd* "yuksak unvonni bildiruvchi so'z" terminlari alohida izohlangan. Shuningdek, VI asrda *"il tütsiqi"* birikmasi *"konstitutsiya"*, ya'ni *"davlatning bosh qomusi"* ma'nosini ifoda etish uchun qo'llangan terminlar sifatida qayd etiladi"[17].

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida davlatni boshqarish uchun *törü* ning o'rni alohidaligi ta'kidlanadi[18]. *"Täkin"* termini qadim turkiylarda taxt vorisiga, keyinchalik esa harbiy lashkarboshilarga unvon sifatida ham ishlatilgan[19]. Arablar boshqaruvi orqali o'zlashgan *vazir* termini bugungi kunda ham davlat boshqaruvida asosiy lavozimni ifoda etadi, *buyruq* termini bajarilishi kerak bo'lgan hujjat turi tushunchasini yo'qotmagan, *xon* termini esa XX asr boshlariga qadar iste'molda faol bo'lgan. Demak, aytish mumkinki, vaqtlar o'tgan sari tilda ishlatilgan terminlar o'z o'rnini boshqasiga bo'shatadi yoki aslicha saqlanib qolishi ham mumkin.

"Temur tuzuklari" da *dargoh* – eng oliy davlat idorasi bo'lib, uni hukmdorning o'zi boshqargan. Mustaqillikdan so'ng shu tushunchani beruvchi termin sifatida dastlab *Prezident apparati* ishlatilgan bo'lib, oxirgi yillarda uning o'rnida *Prezident administatsiyasi* termini qo'llanilmoqda. *Devonlar* – vazirliklar bo'lib, shuningdek, *oliy devon* ham bo'lgan, unga *devonbegi* boshchilik qilgan. Oliy devonning mavqeyi, anglatgan tushunchasi bugungi kundagi Vazirlar Mahkamasi bilan deyarli teng. *Arzbegi, tavochi, hojib, hojiblar, xazinador, xonsolar, jibochi, qushchi,*

[16] Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – T.: Nodirabegim, 2020. – B. 22.

[17]Омонов Қ. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомили(илк ва ўрта асрлар). Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т., 2016. – Б. 22 – 41.

[18]Ko'rsatilgan manba. – B. 46.

[19]uz.m.wikipediya.org

*qushbegi, bakovulboshi, kotib, bitikchi* kabi bir qancha lavozimlar va mansablarni ifodalovchi terminlar keltirilgan[20]. “Temur tuzuklari” dan keyingi davlat boshqaruviga oid manba sifatida Alisher Navoiyning asarlarini ayta olamiz. Alisher Navoiy “Tarixi mulki ajam”, “Majolis-un nafois” kabi bir qancha asarlarida XV-XVI asrdagi tarixiy muhitni yoritish bilan birga, ijtimoiy-siyosiy turmush tarzi, davlat boshqaruvidagi jarayonlar, sinfiy tabaqalarni to‘laqonli aks ettirgan.

Istiqlol davriga doir davlat boshqaruvi terminlari mavjud manba sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, lex.uz va gov.uz saytlarida qo‘llangan terminlar e’tirof qilindi. Davlat boshqaruvi terminlarining sinxron tadqiqini amalga oshirish jarayonida mustaqillik davriga oid manbalardan 900 ta termin yig‘ildi.

Demak, aytish joizki, har qanday sohadagi terminlarni tadqiq etishda ularning shakllanish manbalarini o‘rganish muhim hisoblanadi. Ya’ni terminlarning modernizatsiyalashish jarayonini, leksik-semantik hamda genealogik xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

**“O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining tematik va genealogik tavsifi”** nomli ikkinchi bobda mavzuiy guruhlar tasnifi hamda davlat boshqaruvi terminlarining genealogik tahlili, ya’ni terminlarning qaysi tillarga mansubligi va o‘zlashtirish usullariga ko‘ra turlari tadqiq etilgan. Bobning “*O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining tematik tasnifi”* nomli 2.1. paragrafida davlat boshqaruvi terminlarining umumiy yetakchi guruhlari 6 ta, jumladan, terminlar ifodalagan tushunchalarining xususiyati va vazifasiga ko‘ra 57 ta mavzuiy guruhlarga tasniflandi.

Terminlarni tasniflash va tavsiflash, guruhlashtirish muayyan davrdagi davlat, jamiyat tuzumi, rivoji hamda fan darajasini ko‘rsatib beradigan muhim omildir[21]. Ayniqsa, davlat boshqaruvi terminlarining mavzuiy tasnifi bugungi kundagi siyosiy boshqaruv va jarayon haqida ma’lumot beruvchi, lingvistik jarayonlarni aks ettiruvchi asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilshunosligida E.Begmatov leksik qatlamni mavzuiy guruhlarga ajratgan holda o‘rganish samaradorligini ta’kidlar ekan “Xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, xo‘jaligi, madaniy turmushi, diniy qarashlariga oid ma’lumotlar so‘zning tematik guruhlarida ravshan ifodalanadi”, – degan fikrni bildiradi[22]. Shunga ko‘ra, davlat boshqaruvi terminlari ham aynan xalqning hayoti, avvalo, siyosiy, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarga oid tushunchalarni ifodalashi, xususiyati va vazifasiga ko‘ra mantiqiy asosda mavzuiy guruhlashtirish maqsadga muvofiq.

Terminlarni o‘zaro aloqadorlikda guruhlarga ajratib tahlil qilish muayyan soha terminlarining semantik xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi[23].

“*Davlat boshqaruvi* termin sifatida keng va tor ma’noda tushuncha ifodalaydi. Keng ma’noda davlat boshqaruvi barcha darajadagi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari tomonidan jamiyat hayotining turli sohalarini boshqarish

[20] www.temurtuzuklari.uz

[21] Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: КомКнига, 2006. – С. 92.

[22] Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т., 1985. – Б. 121.

[23] Маҳмудова Н. Телекоммуникация терминларининг мавзуий гуруҳлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2021. – № 6. – Б. 109.

bo‘yicha faoliyatidir[24]. Umumiy tushuncha ostida birlashtirilgan terminlar guruhlari tematik tasnifning asosiy obyekti hisoblanadi. Chikago universitetining professori Leonard Uayt davlat boshqaruvining nazariy jihatdan o‘rganilgan masalalari real borliqqa to‘la muvofiq holda, ya’ni amaldagi davlat boshqaruviga mutanosib bo‘lishi kerak degan fikrni bildiradi[25]. Demak, davlat boshqaruvi fanining nazariyasiga doir bir qancha terminlar amaldagi davlat boshqaruvida ham qo‘llaniladi. Keltirilgan ilmiy dalillarga asoslanib, davlat boshqaruvi terminlari quyidagi mavzuiy guruhlarga bo‘lib tasniflandi:

I. Davlat boshqaruvi nazariyasi bilan bog‘liq terminlar.
II. Boshqaruv usullariga aloqador terminlar.
III. Boshqaruvning axborot bilan ta’minlanganligiga doir teminlar.
IV. Boshqaruv madaniyatiga oid terminlar.
V. Boshqaruvda menejerlar faoliyatiga aloqador terminlar.
VI. Davlat shakli tushunchasiga tegishli terminlar[26].

Qayd etilgan guruhlar ichidan davlat shakli tushunchasiga aloqador siyosiy rejimga doir terminlar eng faol terminlar guruhi sanaladi. Tasnif jarayonida jami 900 ta termin 57 ta mavzuiy guruhga ajratildi. Binobarin, terminlarni anglatgan tushunchalariga ko‘ra guruhlash ularning ma’no mundarijalarini shakllantirishga, semantik mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Bobning 2.2. paragrafi *“O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining genealogik tahlili”* deb nomlangan bo‘lib, o‘z va o‘zlashgan qatlamga doir terminlarning yasalish usullari, terminlarning o‘zlashishiga ko‘ra turlari, o‘zlashgan terminlar miqdori, fonetik o‘zlashmalar, qorishiq terminlar tahlil qilingan.

**Davlat boshqaruviga doir turkiy terminlar.** Davlat boshqaruvi terminlarining genealogiyasini o‘rganishda turkiy leksigaga doir terminlar alohida ahamiyatga ega. Umumturkiy tub leksikadan olingan terminlar sifatida *yurt, el, tuzuk, kengash, burch, yorliq, soliq, er (botir, jangchi), qishloq* kabilarni keltirishimiz mumkin. *El* so‘zi termin sifatida tarixda dastlab *qabila ittifoqi* tushunchasini anglatgan. qoraxoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar va temuriylar davrida tuman, viloyat ma’nosini ifodalagan. Ya’ni hudud tushunchasiga aloqador termin bo‘lgan. Shuningdek, bugungi kunda mamlakat, davlat terminlari ifoda etadigan tushunchani tarixda el termini o‘zida mujassam qilgan[27]. Alisher Navoiy asarlarida xalq, odamlar, askar, lashkar tushunchalarini ifodalab kelgan (ANATIL, III,562). Bugungi kunga kelib, aholi (xalq, odamlar), yurt va biror yurtga mansublik tushunchalarini o‘zida saqlab qolgan[28].

*Yurt* turkiy tub termin bo‘lib, Tunyuquq bitiktoshida yer, mamlakat ma’nosini ifodalagan bo‘lsa, “Qutadg‘u bilig” da uy, yashash joyi tushunchasiga ega bo‘lgan. Oltin O‘rda va Mo‘g‘ulistonda yurt kichik hududni, bugungi kundagi tuman termini

[24] Нгуен Тхи Тху Ван. Терминология государственного управления в современном русском языке. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001. – С. 4.
[25] White L. Introduction to the study of Public Administration (third edition). – N.Y.: Macmillan Company, 1948. – 612 p.
[26] Muxitdinov X.A., Sobirov A.A. Boshqaruv nazariyasi. – T.: Cho‘lpon, 2012. – B. 18.
[27] Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1991. – С. 14.
[28] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. V. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 28.

anglatgan tushunchani ifodalagan[29]. Undan keyingi davrdagi manbalarda o‘z ma’nolarini saqlab qolgan. Hozirda mamlakat aholisi yashaydigan joy, vatan, o‘lkada yashovchi xalq, el ma’nolarini bersa-da, davlat bosharuvida, asosan, mamlakat tushunchasiga ega termin hisoblanadi[30].

**So‘z yasovchi qoliplar (usullar) negizida shakllangan terminlar.** Bu guruhni affiksatsiya, kompozitsiya, semantik va sintaktik usullar bilan yasalgan terminlar tashkil etadi. Masalan, *rasmiy, bitim, yosh senzi, elchi, elektron hukumat, valyuta siyosati, ta’rif setkasi* terminlari hosil bo‘lish shakli jihatidan turli tuzilishga ega. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, tilning o‘z ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan terminlar yasalish tamoyiliga ko‘ra ikki xil tasniflanadi. Ya’ni tilning ichki manbalari, ona tili materiallari negizida hosil qilingan terminlar va o‘zlashmalar asosida yuzaga kelgan terminlardan iborat.

**Affiksatsiya usulida yasalgan terminlar**. O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishi hodisasi haqida ko‘pgina ilmiy-nazariy tadqiqotlar mavjud. A.G‘ulomov va A.Hojiyevning bu borada olib borgan ishlari, nazariy qarashlari obyekt qilib olingan terminlar tadqiqi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi[31]. Affiksatsiya usuli bilan termin yasalishi o‘z qatlamni boyitadigan usullar ichida eng faoli ekanligi bir qancha ishlarda ta’kidlangan[32]. Davlat boshqaruvida ham bu kabi terminlarning qamrovi juda keng. Yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilishi natijasida hosil qilingan terminlar quyidagicha tasniflanadi.

*a) asosi turkiy (o‘zbekcha) bo‘lgan so‘zlardan yasalgan terminlar.* Yasalish asosi ham yasovchisi ham o‘z qatlamga oid davlat boshqaruvi terminlari sifatida *birlashma, tuzilma, boshqarma, birlik, tenglik, elchi, elchilik, otaliq, boshliq, ko‘rik, tinchlik, ishchi* kabilarni keltirishimiz mumkin.

*b) o‘zlashmalardan yasalgan terminlar.* Terminologiyada terminlarning to‘g‘ri o‘zlashtirilishi, qulay qabul qilinishi, tushuncha ifodaviyligini saqlab qolish maqsadida o‘zlashma bo‘lgan so‘zlardan yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali termin hosil qilish eng maqbul yo‘l hisoblanadi. Negaki, mazkur holatda mavjud tushunchaga aloqador yangi leksema-termin shakllantiriladi. *Prezidentlik, siyosiylashish, axborotlashtirish, davlatchilik, deputatlik, himoyalanish, kollegiallik, malakali, majburiyat, vazirlik, yashirin, chaqiriq, boshqaruv, xalqaro* kabi terminlarga e’tibor qilib qaraydigan bo‘lsak, yasalayotgan terminlar o‘zlashgan termin bilan aloqador jarayon tushunchasini anglatmoqda. Bu usul ichki imkoniyatlar asosida boyishning eng samaralisi hisoblanadi. O‘zlashmalardan termin yasashda eng faol birlik sifatida *-lik, -lan, -lash, -sh, -ish, -(v)iy*

[29] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. V. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 16.
[30]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. 5. – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – Б. 415.
[31] Ғуломов А. Сўз ясалиши. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Т.: 1975. – Б. 21; Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – Б. 168.
[32] Пардаева И.Х. Ўзбек тилининг заргарлик терминологияси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1994. – Б. 60 – 65; Ёдгоров Ҳ.Э. Ўзбек тили ҳарбий терминологиясининг синхроник тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1996. – Б. 36-58; Ғуломова Г.Ё. Ўзбек тили юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2005. – Б. 45 – 58; Шаропова Р.Ж. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Қарши, 2019. – Б. 60 – 70; Садинова Н.У. Ўзбек тили иш юритиш терминологияси.Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2020. – Б. 45.

qo‘shimchalari bilan birga fe‘lning orttirma nisbat shakli ham ishtirok etadi (Siyosiylashtirish, liberallashtirish).

**Kompozitsiya usulida yasalgan terminlar.** O‘zbek tilshunosligida qo‘shma so‘zlarning tabiati, ularga xos xususiyatlar haqida qator nazariy qarashlar mavjud[33]. Qo‘shma terminlar tarkiblari (komponentlari) qaysi leksik qatlamga tegishliligiga ko‘ra o‘zaro faqlanadi. 1. Tarkibi o‘zbekcha, arabcha va fors-tojikcha bo‘lib, bir necha asrlar davomida qo‘llanishda bo‘lgan leksik birliklarning voqelanishidan hosil bo‘lgan qo‘shma terminlar. 2. Tarkibi xalqaro termin yoki termin elementlardan iborat bo‘lgan, ayrim komponentlari kalkalangan terminlar[34].

Ayni paytda, qo‘shma terminlarning birikmali terminlar zaminida paydo bo‘lishini unutmaslik kerak. Shu jihatdan, qo‘shma terminlarni birikmali terminlardan farqlab turuvchi bir qancha xususiyatlarini belgilab oldik. Jumladan, birikmali terminlarda bosh (hokim) so‘z asosiy ma’no ifodalaydi, tobe so‘zlar uning ma’nosini ochiqlaydi. Qo‘shma terminda esa, aksincha, tobe so‘zning o‘rnida keluvchi komponent yetakchi ma’no ifodalab, qolgan komponentlar unga qo‘shimcha ma’no beradi. Shuningdek, qo‘shma terminlarda mavhumlikda bo‘lgan umumiy tushunchalar xususiylashtiriladi. Masalan, *ish haqi, Vazirlar Mahkamasi, Ta’lim inspeksiyasi, mehnat unumdorligi* kabilar. Birikma yoki qo‘shma terminlarni ajratish, o‘zaro bir-biridan farqlash muammosi, asosan, moslashuvli birikuvda yuz beradi. Chunki qo‘shma terminlarning aksariyati moslashuvli birikma shaklida hosil qilinadi. *Boshqaruv apparati* qo‘shma termin bo‘lib, shtat jadvali va kasbiy-malaka asosida tashkil qilingan, boshqaruvning ma’lum vazifalarini bajarishi mumkin bo‘lgan, idoralar, bo‘linma va xizmatlarga birlashtirilgan xodimlar majmuini bildiradi[35]. Ifodalagan tushunchasiga ko‘ra bu terminni birikmali deya olmaymiz. Bu holatda ikkita leksema birlashib yangi tushunchali terminni yuzaga keltirmoqda.

Davlat boshqaruvidagi qo‘shma terminlar morfologik tarkibi, ya’ni strukturasi jihatidan quyidagi modellarga ega:

*a)* ot+ot: *bosh vazir, bosh prokuror, bosh qo‘mondon, narx erkinligi, qasamyod, ish kuni, ish vaqti, ishonch yorlig‘i, ta’rif setkasi;*

b) ot+fe’l: *himoya qilish, hujum qilish, joriy etish, tartib o‘rnatish, afv etish*;

c) fe’l+ot: *saylash huquqi, saylanish huquqi, yashash huquqi, chaqiruv yorlig‘i*;

d) fe’l+fe’l: *ishlab chiqarish, ushlab turish*;

*e)* sifat+ot: *muxtor vakil, teng huquqlilik, qurolli kuchlar;*

f) sifat+fe’l: *ochiq ovoz berish, yashirin ovoz berish*

g) ravish+ot: *ko‘p partiyaviylik, favqulotda holat*.

**Semantik usulda hosil bo‘lgan terminlar:** Semantik usulda terminlar hosil bo‘lishida terminlashish va transterminlashish muhim ahamiyatga ega. Ya’ni umumiste’moldagi so‘zning termin sifatida qo‘llanilishi uning terminlashish tendinsiyasini oshirsa, turli sohalarda qo‘llanilishi transterminlashuviga xizmat qiladi.

---

[33]Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Т., 1963.

[34]Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 112.

[35] Dictionary.tsue.uz

G‘.Ismoilovning nuqtayi nazariga ko‘ra, “Semantik usul tufayli ko‘pgina biron bir soha … leksikasi o‘zga bir sohaning terminlari vazifasini bajaryapdi”[36]. Bu ayni haqiqat bo‘lib, davlat boshqaruvi terminologiyasida ham bu kabi terminlar mavjud. Masalan, *biznes-reja* birligi bank-moliya termini sifatida aniq tanlangan tadbirkorlik ishining barcha bosqichlari tavsiflangan va taxminan hisob kitob qilingan loyiha semasi yetakchilik qiladi[37]. Davlat boshqaruvida *biznes-reja* iqtisodiy jarayonlarni umumilliy manfaatlarni ko‘zlab, xo‘jalik amaliyotida obyektiv iqtisodiy qonunlardan foydalanish asosida, ongli ravishda bir maqsadga intilgan holda boshqarishning o‘zaro uzviy bog‘liq tizimidan iborat[38]. *Blokada, nota, modda* kabilar ham transterminlashgan birliklar hisoblanadi.

Davlat boshqaruvida terminlashgan umumiste’moldagi so‘zlar miqdor jihatdan ko‘p. Masalan, *otalik, onalik, bolalik* (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 78-modda: …onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi[39]), *farzand, ovoz berish, yashirin, yig‘ilish, chaqiriq* va b. Entralingvistik va ekstralingvistik omillar so‘zlarning terminlashish jarayoniga o‘z ta’sirini o‘tkazishini unutmaslik lozim.

**Sintaktik usul bilan hosil qilingan terminlar**. Bu usul o‘z qatlamni boyitadigan usullardan eng samaralisidir. Bunday deyishimizga sabab birikmali terminlarning tub va yasamalariga ko‘ra ko‘pligidir. Shuningdek, V.Danilenkoning qarashlariga ko‘ra miqdor jihatdan barcha soha terminologiyasida birikmali terminlar birinchi o‘rinni egallaydi[40]. Masalan, *boshqaruv bo‘limi, xalqchil siyosat, xavfsizlik xizmati, suveren demokratik respublika, xavfsizlik kengashi* kabi.

Kimyo terminologiyasi tadqiqida[41], shuningdek, yuridik terminologiya[42] va kitobatchilik terminologiyasida[43] ham birikmali terminlarning ko‘pligi alohida ta’kidlangan.

Birikmali terminlar strukturasiga ko‘ra ikki yoki undan ko‘p komponentlarga ega bo‘ladi. Birikmali terminlarda aniqlovchi komponent bir qancha bo‘lishi mumkin. Masalan, *ishonchli himoya tizimi, tabeatni* muhofaza qilish davlat qo‘mitasining raisi, *boshqaruv munosabati, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali* kabilar. Birikma tarkibida kelgan aniqlovchi komponent o‘z vazifasini bajarishi uchun yasovchi qo‘shimchalar (-lik, -li, -siz, -iy, -viy…), kelishik qo‘shimchalari, fe’lning vazifadosh shakllari (-gan, (-sh) -ish), ko‘makchilar asosiy o‘rin tutadi. Shuningdek, bu vositalarsiz ham birikmali terminlarni hosil qilish mumkin bo‘lib, bu kabi termin-birikmalar, asosan, ikki va uch komponentni tashkil qiladi. Masalan, *viloyat hokimiyati, tashqi razvetka xizmati, sud tizimi, mahalliy*

---

[36] Исмаилов Ғ. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2011. – Б. 22.

[37] https://uz.wikipedia.org

[38] Muxitdinov X.A., Sobirov A.A. Boshqaruv nazariyasi. – T.: Cho‘lpon, 2012. – B. 75.

[39] Constitutsion.uz

[40] Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С. 170.

[41] Мадвалиев А.В. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации. Дисс. … канд. филол. наук. – Т., 1986. – С. 15.

[42] Ғуломова Г.Ё. Ўзбек тили юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти. Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Т., 2005. – Б. 15.

[43] Юлдашев И.Ж. Ўзбек китобатчилик терминологияси: Шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш. Филол. фан. д-ри. дисс. ... автореф. – Т., 2005. – Б. 20.

*hokimiyat organlari, umummilliy boylik, yopiq majlis, ochiq siyosat* singari. Bu kabilar ot+ot, yoki sifat+ot modeliga xos birliklardir.

Barcha mulohazalarni umumlashtirgan holda, terminni sintaktik usulda hosil qilish uchun quyidagi terminologik jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. Birikma tarkibidagi har bir komponent tushunchaga oydinlik kiritishiga xizmat qilishi kerak.


2. Birikmali terminlarda aniqlovchi komponentning ko‘payib ketmasligiga alohida ahamiyat berish zarur. Sintaktik usulda yasalgan terminlarning aniqlovchi komponentlari beshta yoki undan ko‘p bo‘lishi terminning sifatiga ta'sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, birikmali terminlarni imkon qadar ixchamlashtirish, soddalashtirish muhim ahamiyatga ega.

**Qisqartma terminlar.** D.Lottening terminlarni qisqartirish to‘g‘risidagi mulohazalariga ko‘ra aniqlik, qisqalik va lo‘ndalikni terminga qo‘yiladigan talablardan biri sifatida izohlaydi[44]. Demak, qisqartmalar murakkab terminlarni ixchamlashtirib beradi. Abbreviatsiyada yangi tushuncha ifodalovchi birliklar yasalmaydi, aksincha, mavjudlari qisqartiriladi. Qisqartmalar, asosan, sintaktik usulda, kam hollarda kompozitsiya usulida yasalgan terminlardan hosil qilinadi. Davlat boshqaruvida quyidagi qisqarma terminlar mavjud: *BHMS – buxgalteriya hisoboti milliy standartlari, SK – saylov komissiyasi, VM – Vazirlar Mahkamasi, FHDY organlari – fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari, FHQE – fuqarolik holatini qayd etish, QK – qurolli kuchlar, SK – Saylov kodeksi, PF – prezident farmoni, PQ – prezident qarori, MSK – Markaziy saylov komissiyasi va b.*

**O‘zlashgan terminlar.**

Ma'lumki, jamiyatdagi har qanday o‘zgarish dastlab tilining leksik tizimida namoyon bo‘ladi[45]. Shu ma'noda til – tirik organizm. U ijtimoiy hayotda boshqa tillar bilan birga yashaydi, muntazam aloqada bo‘ladi. Doimiy ravishda boshqa tillardan so‘z oladi va o‘zga tillarga donorlik vazifasini o‘taydi[46]. O‘zga til elementlarining (leksema yoki morfema) mavjudligi tilning rivojlanish darajasida ekanligini ham belgilaydi.

O‘zlashgan qatlamdagi davlat boshqaruviga oid terminlarning asosiy qismini arab va lotin tiliga oid o‘zlashgan terminlar tashkil qiladi. Keyingi o‘zlashish, fransuz va ingliz tilidagi leksik birliklar hisobiga to‘g‘ri keladi (Qarang: 1-rasm).





**1-rasm. Boshqa tillardan o‘zlashgan terminlarning miqdoriy holati.**

[44] Лотте Д.С. Основы Построения научно-технической терминологии. – М., 1961. – С. 18.
[45]Шоабдурахмонов ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 105.
[46]Hakimov D. O‘zbek tiliga xorijiy so‘zlari kirib kelishining tasnifiy tahlili // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2021. – № 6. – B. 120.

**Qorishiq terminlar**. Kommunikativ birlik sifatida o‘zbek tilida XX asr o‘rtalaridan faollashgan. Qorishiq terminlar qo‘shma terminlar ichida alohida ajralib turadi. Uning lingvistik belgisi tarkibida xalqaro terminelementning mavjudligi bilan belgilanadi[47]. Termin tarkibida xalqaro terminelement faqat leksemadan iborat bo‘lmay qisqartma element (prepozitiv) va morfemalardan ham tashkil topishi mumkin. Masalan, *geo* (*geosiyosat, geomakon, geoxavf), makro, mikro, trans* (*transchegara, transmilliy), kiber (kiberhujum, kiberhimoya, kiber xavfsizlik, kiber makon, kibertahdid)* xalqaro termin elementlari ham davlat boshqaruvida o‘zlashgan terminlar qatorini kengaytirmoqda.

**Davlat boshqaruvi terminlarining o‘zlashtirish usullariga ko‘ra turlari.** O‘zbek tilining terminologik tizimlarini shakllantirish va boyitishda o‘zlashma so‘zlar muhim o‘rin egallaydi. Bu jarayon boshqa tillardan terminlarni aynan o‘zlashtirish yoki o‘zga til terminlarini kalkalash orqali amalga oshirilmoqda[48]. Shunga ko‘ra o‘zlashgan davlat boshqaruvi terminlari fonetik o‘zlashmalar va kalkalash asosida o‘zlashtirilgan, ya’ni semantik o‘zlashma terminlardan iborat.

Fonetik o‘zlashmalarga o‘zlashtirilayotgan tildagi so‘zning tovush qobig‘i, tashqi va ichki strukturasi asosida qabul qilingan barcha leksik birliklar kiradi. Masalan, *prezident, strategiya, pensiya, ratifikatsiya, reabilitatsiya, rezolyutsiya, subsidiya subvensiya, senzura, delegatsiya, diplomatiya, demarkatsiya* kabi. Umumiy holatda davlat boshqaruviga oid fonetik o‘zlashmalar soni 341 tani tashkil qilmoqda. Ulardan eng kam qismi Konstitutsiya matnidan olingan terminlar hisobiga to‘g‘ri keladi (Qarang: 2-rasm).




**2-rasm. Mustaqillik davriga oid manbalardagi fonetik o‘zlashmalar.**

**Kalkalash.** Terminlarni kalkalash asosida o‘zlashtirish eng faol usul hisoblanadi. Buning sababi esa, o‘zlashtirilayotgan terminning o‘zlashtiruvchi til qonuniyatlariga bo‘yso‘ndirilishi hisoblanadi. Qolaversa, kalkalash tilning sofligini saqlab qolishga bo‘lgan ichki intilish tartiblashgan va standartlashgan ilmiy terminlarni o‘zlashtirishning nisbatan muqobil yo‘llarining taraqqiy etishiga olib keladi”[49]. Semantik kalkaning o‘zlashish yo‘llari turlicha bo‘lib, davlat boshqaruvida, asosan, shakliy, vazifaviy va harakat tarzi o‘xshashligi asosida o‘zlashgan terminlar ko‘p sonli. Ammo rang-tus o‘xshashligi asosida hosil qilingan

[47]Мадвалиев А., Маҳкамов Н. Халқаро терминэлеменлар ва термин ижодкорлиги // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 2021. – № 2. – Б. 15.
[48] Ko‘rsatilgan manba. – Б. 15.
[49]Ширинова Е. Ўзбек тили банк-молия терминологиясида калка // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2017. – № 2. – Б. 108.

termin-metaforalar yo‘q. V.Gorelov semantik kalkalangan terminlarni ikki guruhga tasniflaydi. Struktur kalka va etimologik kalka. Struktur kalkada leksik birlikning yasalish shakli muhim bo‘lib, til elementi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinadi. Masalan, *xalqaro huquq, boshqaruv monopoliyasi, hokimiyat organlari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, jinoyat kodeksi, fuqarolik jamiyati…*

Semantik kalkalarda terminlar to‘liq kalkalanishi yoki yarim kalkalanishi mumkin. Конститутционный строй – konstitutsiyaviy tuzum, основы государственного управления – davlat boshqaruvi asoslari, гражданское законодателство – fuqarolik qonunchiligi, правосудие – odil sudlov, оборона – mudofaa, законодательство семье – oila qonunchiligi kabi keltirilgan terminlar to‘liq kalkalangan hisoblanadi. Yarim kalkada terminning asos qismi saqlanib qolib, qo‘shimchalari tarjima qilinadi yoki xalqaro terminelement qismi qolib, asos qismi o‘giriladi. *Kollegiallik, progressivlik, makroiqtisodiyot, mikrosiyosat, kiberhujum, kiberhimoya, kiberxavfsizlik, parlamentlik (parlamentarizm), demokratik (demokratizm), infratuzilma, geosiyosat* kabi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlari o‘rtasidagi paradigmatik munosabatlar”**ga qaratilgan bo‘lib, unda sinonimiya, giper-giponimiya, antonimiya, partonimiya hodisalari yoritilgan. Bobning 3.1. paragrafi *“Sinonimiya”* deb nomlanib, davlat boshqaruviga doir terminlararo sinonimlik hodisasi tadqiq etilgan.

*Sinonimiya.* Leksik sinonimiya dunyo tilshunosligi tarixida juda keng o‘rganilgan semantik kategoriyalardan biri bo‘lishiga qaramay, terminlar sinonimiyasi bugungi kunda o‘z mohiyati jihatidan zamonaviy yondashuvni talab qilayotgan paradigmadir. Negaki terminlar tushunchani aks ettirish bilan birga voqelantiruvchi hamdir.

*Mutlaq sinonimlar* har jihatdan bir-biriga teng kelib, hech qanday lisoniy farqlarga ega bo‘lmaydi. Kuzatishlarimiz natijasi shunga olib keldiki, mutlaq sinonimlarning asosiy qismi fonetik o‘zlashmalar (termin tovush qobig‘i asosida o‘zlashtiriladi) va kalkalangan terminlararo yuz bergan. Masalan, *oqsoqol – rais, boshliq – rahbar, urbanizatsiya – shaharlashish, prezident – davlat rahbari, suveren – mustaqil, departament – boshqarma, demokratiya – xalq hokimiyatchiligi, arbitraj – hakamlik sudi, afv etish – amnitsiya, falsifikatsiya – qalbakilashtirish, rezidensiya – qarorgoh, selektor- – yig‘ilish, reviziya – taftish, hujjat – dokument* kabilar.

*Ideomatik sinonim terminlar* anglatayotgan tushunchalari o‘rtasida kichik ma’noviy farqlarga ega bo‘ladi. Masalan, *federatsiya – birlashma, soliq – boj* kabi.

*Uslubiy sinonimlar* davlat boshqaruvi terminlaridagi sinonimiyaning bu turini keltirishimiz munozara tug‘dirishi mumkin, ammo unutmaslik kerakki, har qanday leksemani xalq yaratadi va xalq qabul qiladi. Shunga ko‘ra asosiy tushuncha ifodalovchi davlat boshqaruv terminlari rasmiy uslubga tegishli bo‘lsa-da, shu terminlar norasmiy o‘rinlarda boshqa leksemalar bilan almashtiriladi. Bu holat esa turli uslubda qo‘llanuvchi terminlar sinonimligini keltirib chiqaradi. Masalan, *davlat, yurt, mamlakat, vatan* turli uslublarda ishlatiladigan leksik birliklardir.

Bobning 3.2. paragrafi *“Giper-giponimiya”* deb nomlanib, jins-tur munosabati tahlil qilingan. H.Dadaboyevning qarashlariga ko‘ra, giper-giponimik munosabatlar deyarli barcha terminologik sitemalarda mavjud bo‘lib, tabiat va jamiyatdagi o‘ta

murakkab munosabatlarni ifodalovchi o‘ziga xos xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi[50]. Shu ma’noda aytishimiz mumkinki, bu hodisa o‘zbek tilshunosligida terminologik tizimlar uchun ham alohida o‘rganilishni talab qiladi. O‘zbek tilshunosligida R.Safarova zoonimlar misolida bu paradigma ustida mulohaza olib borgan bo‘lsa, O.O‘rinova qoramolchilik terminlari o‘rtasidagi giper-giponimik munosabatni tadqiq etgan[51]. Davlat boshqaruvi terminlarining giper-giponimik munosabatlarini aniqlash terminlarning semantik jihatdan tizimliligini ko‘rsatdi. Giperonim umumiy mazmunni ifodalasa, giponim xususiy ma’noga ega bo‘ladi. Bu jarayon tilning lisoniyligi bilan bog‘liq bo‘lib, til va tafakkur munosabatida xususiy sememasiga ega bo‘lgan birliklar mohiyatan umumiylikda jamlanadi. Shuningdek, har bir giponim tarkibida giperonim ishtiroki talab qilinadi. Giponimlar giperonimsiz hech qanday mazmunga ega emas va bu holat nol ko‘rsatkich bilan baholanadi. Bunday holatda jins-tur munosabati yuz bermagan hisoblanadi. Masalan, *huquq* giperonimi *konstitutsion huquq, subyektiv huquq, ijtimoiy huquq, siyosiy huquq; soliq* giperonimi: *mol-mulk solig‘i, daromad solig‘i, qo‘shimcha qiymat solig‘i, yer solig‘i, aksiz solig‘i* kabi giponimlariga ega. Keltirilgan natijalardan ko‘rib turibmizki, giponim hisoblangan terminlar giperonimning asosiy tushunchasini izohlab, ifodalab kelgan.

Bobning 3.3. paragrafi *“Antonimiya”* deb nomlanadi. Sohalarga doir terminlar o‘rtasidagi antonimik munosabatlar alohida tahlil qilingan izlanish sifatida Z.Jo‘rabayeva, Y.Shirinovaning ishlarini keltirish mumkin[52]. Z.Jo‘rabayevaning dissertatsiyasida ekologik terminlar o‘rtasidagi komplementar, kontrar, gradual antonimlar tahlilga tortilgan. Bundan farqli holatda Y.Shirinovaning ishida antonimlikni hosil qilgan birliklar maxsus harflar asosida guruhlashtirilgan (T-T, T-Y, Y-Y, AB-A+AB, AS-BS, SAB-DAB). Kuzatishlarga asoslanib davlat boshqaruvi terminlaridagi antonimik birliklarni komplementar, kontradiktiv turlarga bo‘lgan holda tahlilga tortdik.

*Komplementar antonimlar* ikki termin orasidagi binar munosabatga asoslanadi[53]. Bunda terminlar anglatgan tushunchalar asosida qarama-qarshilikka uchraydi. Masalan, *kibertahdid-kiberxavfsizlik, kiberhujum-kiberhimoya, inqiroz-taraqqiyot, immegratsiya-migratsiya, qonuniylik-noqonuniylik, istiqbolli-istiqbolsiz, rasmiy-norasmiy, sanksiya-rag‘batlantirish* kabi.

*Kontradiktiv antonimlar* termin-birikmalar o‘rtasidagi ma’noviy munosabat qarama-qarshiligini vujudga keltiradi: *davlat boshqaruvi subyekti-davlat boshqaruv obyekti, davlat daromadi-davlat xarajati, siyosiy barqarorlik-siyosiy risk, xorijiy sarmoya-mahalliy sarmoya, xususiy sektor-ijtimoiy sektor, tug‘ilganlik haqida guvohnoma-o‘lim haqida guvohnoma.*

Bobning 3.4. paragrafi *“Partonimiya”* deb nomlanadi. Butun-bo‘lak munosabatini reallashtiruvchi hodisa partonimiya hisoblanib, terminologik tizimda

---

[50] Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – T.: Nodirabegim, 2019. – B. 93.

[51]Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 12; Ўринова О. Ўзбек тилида қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2007. – Б. 18 – 19.

[52]Жўрабаева З. Ўзбек тилида экологик терминлар. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2018. – Б. 100 – 104; Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси.Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Т., 2020. – Б. 86-89.

[53]Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – T.: Nodirabegim, 2020. – B. 101.

xolo-meronimik bo‘la oladigan terminlar nazarda tutiladi. Xolonim butun tushunchani ifodalovchi termin bo‘lsa, meronim butun tushunchaga aloqador ma’no ifodaviyligiga ega bo‘lgan leksik birlik hisoblanadi. Ular o‘rtasidagi munosabat shakli partonimiyadir.

O‘zbek tilida *davlat* termini hudud sememasi nuqtayi nazaridan *avtonom davlat, viloyat, tuman, shahar, qishloq, ovul* meronimlarini birlashtiradi.

Davlat boshqaruvi tizimining o‘zi ham partonimik munosabatni hosil qiladi. Barcha quyi tizimlar, ya’ni *iqtisodiy tizim, siyosiy tizim, ijtimoiy tizim, saylov tizimi, ta’lim tizimi* meronimlari uchun xolonim hisoblanadi.

Tilda har qanday tushuncha anglatuvchi leksik birliklar umumiy mazmnundorlikka birlashtiriladi. Shu ma’noda partonimik munosabat terminologiyaga oid leksik qatlamning ma’noviy aloqadorligini asosli ochiqlab berishga xizmat qiladi.

## XULOSA

O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Davlat boshqaruvi terminlari o‘zbek tili leksik qatlamida muhim o‘rin tutib, boshqa terminologik tizimlardan farqli holatda ko‘pgina sohalar bilan integratsiyaga ega. Chunonchi ijtimoiy-siyosiy, diplomatik, bank-moliya, pedagogik, yuridik terminlar tizimi bilan aloqadorlik kasb etadi. Bu sohalarga doir terminlar davlat boshqaruvi termini sifatida ham qo‘llaniladi.

2. O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlarining shakllanishi va rivojida O‘rxun-Enasoy obidalari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”, Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari, shuningdek, “Temur tuzuklari”, Alisher Navoiyning asarlari, Ogahiyning “Riyoz-ud davla” asari kabi manbalarning roli beqiyosdir. Davlat boshqaruvi terminlarining taraqqiyoti va takomilida ekstralingvistik omilning ta’siri kuchli. Buni siyosiy tizimning o‘zgarishi, ya’ni istiqlolning qo‘lga kiritilishi va prezidentlik institutiga o‘tilishi bilan izohlash maqsadga muvofiq. Mustaqillik davriga oid davlat boshqaruvi terminlari mavjud manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali (gov.uz.), O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz.) kabilarni qayd etish mumkin.

3. Tilning leksik tarkibini tizimli o‘rganishning samarali usuli mavzuli guruhlarga ajratish hisoblanadi. Shuningdek, mazmuniy mundarijasiga ko‘ra mavzuiy tasniflash terminologik birliklarni to‘liqroq chegaralab olish imkonini beradi. Kuzatishlarimiz asosida o‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlari jami 57 ta katta-kichik mavzuiy guruhga oidligi aniqlandi. Bunda davlat boshqaruvi nazariyasi bilan bog‘liq, boshqaruv usullariga, boshqaruvning axborot bilan ta’minlanganligiga, boshqaruv madaniyatiga, shuningdek, boshqaruvda menejerlar faoliyatiga va davlat shakli tushunchasiga tegishli terminlar guruhi yetakchi ekani ma’lum bo‘ldi.

4. O‘zbek tili davlat boshqaruvi terminlari genealogik tahliliga ko‘ra o‘z va o‘zlashgan qatlamdan iborat. O‘z qatlam turkiy va so‘z yasovchi usullar vositasida yasalgan sodda yasama, qo‘shma, birikmali va qisqartma terminlardan tashkil topgan. Umumturkiy tub terminlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular tarixiy

manbalarda qanday ma’no kasb etgan bo‘lsa, bugun ham shu holatda mazmunini saqlab qolgan.

5. Terminlarni shakllantirishda affiksatsiya va sintaktik usul eng samarali hisoblanadi. Davlat boshqaruviga oid terminlarning asosiy qismi yasovchi qo‘shimchalar orqali yasalgan sodda yasama hamda birikmali terminlardan iborat. Shuningdek, ta’kidlash lozimki, tilning ichki imkoniyatlari yordamida yuzaga kelgan terminlarning yasalish tamoyili ikki xil. Ya’ni ona tili materiallari negizida va o‘zlashmalar asosida yuzaga kelishi mumkin. Har ikki holatda ham hosil bo‘lgan terminlar o‘z qatlamga tegishli hisoblanadi. Bunga sabab esa, terminlar tilning ichki imkoniyatlari asosida yasalishidir.

6. Affikslar termin shakllantirishda yasovchi model yoki aniqlovchi komponent bo‘lib keladi. Bu ikki holatni farqlash lozim, ya’ni yasovchi qo‘shimchalar yasovchi model bo‘lganda sodda yasama terminlar, yasovchi qo‘shimchali aniqlovchi komponent bo‘lganda birikmali terminlar yuzaga keladi. Shu ma’noda, aytish mumkinki, sohaga doir termin hosil qilishda *-ma, -lik, -lan, -lash, -iy (viy)* affiksli so‘z yasovchi model va *-sh (ish)* fe’lning vazifa shakli boshqa birliklarga qardaganda sermahsul sanaladi. Shuningdek, aksariyat soha terminologiyasida unumdor deb e’tirof etiladigan *-chi* qo‘shimchasi davlat boshqaruvida bunday o‘ringa ega emas.

7. O‘zlashmalarning aksariyat qismi fonetik usul orqali o‘zlashgan tub terminlardir. Fonetik o‘zlashmalardan termin shakllantiruvchi faol birliklar qatorida *-lik, -lan, -lash, -sh, -ish, -(v)iy, -siz, -lik* qo‘shimchalari bilan birga fe‘lning orttirma nisbat shakli ham ishtirok etadi.

8. Kompozitsiya usulida yasalgan terminlar komponentlari qaysi leksik qatlamga tegishliligiga ko‘ra farqlanib, davlat boshqaruvida o‘zbekcha, arabcha, fors-tojikcha, shuningdek, xalqaro termin yoki terminelemetlardan iborat qo‘shma terminlar mavjud. Sintaktik usulda yasalgan terminlarning aksariyati struktur jihatdan ikki yoki uch komponentni tashkil qiladi. Shuningdek, bir qancha birikmali terminlarda bitta leksik birlik aniqlovchi komponent vazifasini bajaradi.

9. Xorijiy tillarga doir davlat boshqaruvi terminlari fonetik jihatdan va kalkalash asosida o‘zlashtirilgan, ya’ni semantik o‘zlashma terminlardan iborat. Sohaga oid terminlarining o‘zlashgan qatlami arab, fors-tojik hamda bilvosita yoki bevosita o‘zlashtirilgan lotin, fransuz, yunon, rus polyak, ispan, italyan, shved tillariga mansub birliklardan iborat.

10. Davlat boshqaruvi terminlarining leksik-semantik mohiyatida sinonimiya, antonimiya, giper-giponimiya va partonimiya kabi paradigmatik munosabatlar alohida o‘rin tutadi. Terminologiyada sinonimiya ma’qul ko‘rilmasa-da, ijtimoiy-siyosiy holat davlat boshqaruvida sinonimlarning ishlatilishiga ehtiyoj yaratadi. Sohada mutlaq, uslubiy va ideomatik sinonimlar ko‘zga tashlanadi. Giper-giponimiya munosabati davlat boshqaruvi terminologiyasining semantik jihatdan tizimli ekanligini aniqlash imkonini berdi. Antonimiyada terminologik birliklarning zidlanish jarayonida bir-birini taqozo etish qonuniyati kuzatildi. Partonimiya munosabati davlat boshqaruvi ijtimoiy-siyosiy leksikaning asosiy qismini tashkil etishini ko‘rsatdi. Shuningdek, soha terminlarining ma’noviy chegaralarini belgilab berdi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**GANIYEVA LOBAR SADULLA KIZI**

# TERMS OF PUBLIC ADMINISTRATION IN UZBEK LANGUAGE

**10.00.01 – Uzbek language**

**ABSTRACT OF THE DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2025

**The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation was registered with the Higher Atetestation Commission under the Minstry and of Higher Education, Science of Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.4.PhD/Fil2818.**

The doctoral thesis was carried out at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

Dissertation abstract is placed on the web site of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and educational informational portal of "Ziyonet" (www.ziyonet.uz ) in three languages (Uzbek, English and Russian (resume).

| | |
|---|---|
| **Scientific advisor:** | **Abdushukurov Bakhtiyor Buronovich**<br>Doctor of Philological sciences, Professor |
| **Official opponents:** | **Sobirov Abdulhay Shukurovich**<br>Doctor of Philological Sciences, Professor |
| | **Mamatov Abdugafur Eshonkulovich**<br>Doctor of Philological Sciences, Professor |
| **Leading organization:** | **Tashkent State Pedagogical University named after Nizami** |

The defence of the dissertation will be held on the 22th of May 2025 at $14^{00}$ hours at a meeting of the Scientific Council under the number DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Khos Hojib Street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@tsuull.uz.

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registered under the number 345). (Address: 100100, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Khos Hojib Street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@tsuull.uz.

Abstract of the dissertation is distributed on "30" CHA'LIM 2025.

(Protocol at the register No. 1 dated "30" 2025)

**H.A.Dadaboyev**
Chairman of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Science, Professor

**K.U.Pardayev**
Scientific Secretay of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Science, professor

**S.Ashirboyev**
Chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on awarding Scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

Сканировано с CamScanner

## INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) dissertation abstract)

**The relevance and necessity of the dissertation topic.** Terminology systems, which have been the object of study in world linguistics since the mid-20th century, are still of great importance today. Lexical units related to specific areas make up a large part of a person's linguistic reserve. The vocabulary of a language is enriched over time, the concepts expressed undergo changes, and old ones give way to new ones. This process requires continuous research at the terminological level of the language. Since the increase in the number of terms in the language reserve, as well as the development of terminological systems are important signs of the development of the literary language, it is also important to study the sources of formation, lexical and semantic features, genealogy, and identify the paradigmatic relationships of public administration terms.

Despite the fact that the requirements for a term in world linguistics, its features, aspects of expressing a concept, the presence of lexical-semantic relations in terminological units, materializing their linguistic units are covered in many studies, the use of terms representing new concepts in new areas (diplomacy, banking and financial, tourism, office terminology, public administration) requires their study. In this regard, it becomes relevant to regulate the terms related to public administration, to determine lexical and semantic features, to study the genealogical composition, both socio-political and linguistic.

In Uzbek linguistics recently, special attention has been paid to the development of bases for achieving correct use of terms, translation of lexical units into terminological ones and reliance on internal possibilities in terminology. In particular, of great scientific and theoretical importance are the studies on generalization, systematization and communication of views on the interpretation of terminology. In this regard, there is an urgent need to study the terms of public administration at a time when our society is in socio-economic and political development. Already in the Decree “On measures to cardinally enhance the role and authority of the uzbek language as the state language” it was stated that: “...achieving full and correct utilization of the possibilities of the state language in all spheres of public life of our country, including public administration, modern and innovative technologies, industry, banking and financial system, jurisprudence, diplomacy, military, medicine and others” [54] identified as one of the main tasks.

This dissertation to a certain extent serves and determines its relevance in the implementation of tasks defined by decisions and other regulatory legal acts related to the industry. Including Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. DP-49-97 of May 13, 2016 “On the establishment of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi”, Presidential Decrees No. DP-5850 of October 21, 2019, “On measures to radically increase the role and authority of the Uzbek language as the state language” anf No. DP-6084 of 20 October 2020 “On measures to further develop the Uzbek language and improve

[54]Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // http//uza.uz/oz/documents/uzbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019.

language policy in our country", Resolution of the President "On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of research activities" dated February 17, 2017 No. RP-2789, Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the effectiveness of fundamental and applied research of the Uzbek language and literature" dated March 11, 2020 No. 139.

**Compliance of the research with the priority areas of the development of science and technology of the republic.** The thesis is devoted to the development of science and technology of the Republic is realized within the framework of priority direction I. "Formation of the system of innovative ideas and ways of their realization in social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of informed society and democratic state".

**The level of study of the problem.** In world linguistics to this day, terms are linguistically continuously researched. In particular, as in the scientific studies of such scientists as G.Vinokur, A.Reformatsky, D. Lotte, V.Danilenko, the theoretical aspects of terminology, the ordering of the system of terms, the signs of the term, the practical significance of the term and terminology are revealed.[55] However, A.Superanskaya, N.Podolskaya, N.Vasilieva, gave a scientific justification of the fact that the term is a special element of language.[56] Y.Belchikov, I.Protchenko, A.Buryachok, P.Milshin, N. Leiberova linguistic scientists, such as Tkacheva, semantically and thematically studied words belonging to the socio-political stratum on the basis of nominativity[57]. Studies on terminology have also been carried out by such linguists as Nguyen Thi Thu Van, M.Kulchieva, S.Efendieva, Alkudah Amjad Kosim Muhammad, E.Belous, T.Artyunova[58]. The dissertations of M.Kharlanova, A.Isabekova, R.Barlibayev are of special importance as works on Turkic languages[59].

---

